MIQDOR ANGLATUVCHI FRAZEOLOGIZMLAR

Munojatxon Najmiddinovna Mamadjanova
Qo‘qonDU

Annotatsiya: Mazkur maqolada miqdor kategoriyasining frazeolofizmlarda namoyon bo‘lishi va bu jarayonda frazeologizmlarning o‘ziga xos jihatlari yuzaga chiqishi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, frazeologizmlarning boshqa til vositalariga nisbatan miqdorni real aniqlik bilan emas, balki baholovchi ma’noda ifodalashi tahlil etilgan. Har bir tilning frazeologik boyligi shu tilda so‘zlashuvchi xalqning tarixi, turmush darajasi, madaniyati, urf-odatlarini yorqin aks ettirshi dalillar orqali ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: baholovchi kvantifikatsiya, aniq kvantifikatsiya, lingvistik miqdor, intensivlik, nol miqdor

PHRASEOLOGISMS WITH QUANTITATIVE MEANING

Munojatkhon Najmiddinovna Mamadjanova
KokandSU

Abstract: This article examines the manifestation of the category of quantity in phraseological units and the emergence of specific aspects of phraseological units in this process. It also analyzes how phraseological units express quantity not with true precision, but rather in an evaluative sense compared to other linguistic means. It clearly demonstrates that the phraseological richness of each language vividly reflects the history, standard of living, culture, and traditions of the people speaking that language.

Keywords: evaluative quantification, exact quantification, linguistic quantity, intensity, zero quantity

Tilshunoslar miqdor kategoriyasini yuzaga chiqaruvchi vositalar, miqdoriylik ma’nolari bilan bog‘liq muammolarni o‘rganganlar. Bunda “miqdor” bilan terminologik yaqin tushunchalar sifatida quyidagilar ajratib ko‘rsatilgan: miqdor, miqdoriylik va kvantitativlik. Miqdor deyilganda sanalish va o‘lchanish imkoniyati tushuniladi, miqdoriylik-miqdor kategoriyasiga asoslangan xususiyatdir, kvantitativlik esa turli sathlarda miqdoriylik mazmuniga ega bo‘lgan tushunchalar kompleksi haqida tasavvurni yuzaga chiqaruvchi mantiqiy-semantik kategoriya hisoblanadi. Miqdoriylik mazmuni miqdor, son, ko‘plik, qisqalik kabilarni o‘z ichiga

(cc) BY

oladi. Shuningdek, kvantitativlik ma’nosi tartib, o‘lchov parametrlariga aloqador tushunchalarni ham o‘z ichiga oladi.

Individ atrof-muhitni anglar ekan, muayyan predmet va hodisalarning xususiyatlarini ajratib oladi hamda ularning miqdoriy belgilanganligini aniqlaydi. Chunki miqdor butun borliqqa xos obyektiv jihat hisoblanadi. U faqat predmetning o‘zigagina emas, balki uning xususiyatlari va turli tomonlariga ham taalluqlidir. Shuning uchun miqdor tushunchasining universalligi turli sohalar olimlarining diqqatini jalb qilgan. Miqdor kategoriyasi tilshunoslikdan ham chetda qolmagan. Til inson ongida aks ettirilgan va tilda kodlangan miqdoriy parametrlarning butun majmuasini maxsus lingvistik kategoriya sifatida-miqdor kategoriyasi (kvantitativlik) tarzida o‘rganadi. Miqdor tilning barcha sathlarini qamrab olgan asosiy semantik kategoriyalardan biri hisoblanadi. Falsafiy miqdor kategoriyasidan farqli ravishda, tilshunoslikdagi miqdor kategoriyasida «inson omili» alohida o‘rin tutadi. Ya’ni lingvistik miqdor mutlaq abstrakt holatda emas, balki inson tomonidan anglanadigan, qayta ishlanadigan va tilda ifodalanadigan mavzuiy qatlam sifatida talqin qilinadi. Bu esa tilda ikki xil qo‘llanilishni keltirib chiqaradi:

1. Aniq kvantifikatsiya-real, obyektiv miqdorni aks ettirish uchun;

2. Subyektiv, baholovchi kvantifikatsiya-subyektning miqdor haqidagi munosabatini ifodalash uchun.

Miqdor kategoriyasini ifodalashda frazeologizmlar alohida o‘ringa ega. Ko‘pgina olimlar frazeologizmlarda miqdorning ifodalanish usullarini tasniflashga, ularning semantik tarkibini tahlil qilishga urinishgan. Bu yo‘nalishda «katta, noaniq miqdor», «umumiy miqdor», «nol miqdor», «juda kichik miqdor» kabi mikromaydonlar ajratiladi va ular umumiy «Miqdor makromaydoni» tarkibiga kiradi.

Bugungi kunda kognitiv tilshunoslik yo‘nalishi doirasida ham miqdor kategoriyasini tahlil qilishga urinishlar bor. Masalan, G.G.Galich, Y.I.Bajanova, Y.N.Alekseyeva kabi olimlar miqdorning tildagi reprezentatsiyasini kognitiv nuqtayi nazardan tadqiq etishgan.

Frazeologizmlar boshqa til vositalariga nisbatan miqdorni real aniqlik bilan emas, balki baholovchi ma’noda ifodalaydi. Ya’ni ularda miqdor hayotiy holatlar bilan bog‘lanib, insonning shaxsiy qarashi bilan uyg‘un holda aks etadi.

N.K.Ryabseva bu holatni shunday ifoda etadi: «oddiy ongda miqdor hisoblanmaydi, balki baholanadi; shu bois u psixologik munosabat bilan anglanadi».

Frazeologiyani o‘rganish XVIII asr o‘rtalaridan yo‘lga qo‘yildi. Frazeologiya tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida o‘tgan asrning 40-yillarida maydonga keldi. Frazeologiya bo‘limining shakllanishida mashhur rus olimlari M.V.Lomonosov, A.A.Potebnya, I.I.Sreznevskiy, A.A.Shaxmatov, F.F.Fortunatov singari tilshunoslarning asarlarida so‘zlarning bog‘lanishi haqidagi g‘oyalar tayanch nuqta bo‘lib xizmat qildi. Frazeologiya nazariyasining rivojida Sh.Balli, Y.D.Polivanov,

(cc) BY

L.A.Bulaxovskiy, V.V.Vinogradov, turkiyshunoslikda S.K.Kenesbayev, S.N.Muratov kabi tilshunoslarning alohida xizmatlari bor. O‘zbek frazeologiyasining nazariy masalalari dastlab Y.D.Polivanovning ishlarida o‘rtaga tashlangan bo‘lib, unda rus va ayrim sharq tillari frazeologiyasini o‘rganish orqali mustaqil soha sifatida ajratildi[2]. Keyinchalik Sh.Rahmatullayev, Y.Pinxasov, M.Husainov, B.Yo‘ldoshev, A.Mamatov, A.Mamatov, A.Isayev, A.Rafiyev, M.Sodiqova, Q.Hakimov, Sh.Usmonova, M.Xoliqova, K.Bozorboyev, B.Jo‘rayeva, Sh.Abdullayev, Sh.Almamatova[3], M.Vafoyeva[4] va boshqa qator tilshunoslarning asarlari maydonga keldi. O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlarni struktural-grammatik, semantik-uslubiy, funksional jihatlardan o‘rganish sohasida muayyan yutuqlarga erishildi. Bu muammo bo‘yicha yaratilgan monografik izlanishlarda frazeologik birliklarning shakllanishi, ularning o‘ziga xos belgilari, taraqqiyoti, uslubiy jihatlari, etimologik xususiyatlari, frazeologizmlarning leksemalar bilan bog‘lanish imkoniyatlari, ayrim tillar iboralari bilan qiyoslanishi singari masalalar atroflicha tadqiq etilgan.

Har bir tilning frazeologik boyligi shu tilda so‘zlashuvchi xalqning tarixi, turmush darajasi, madaniyati, urf-odatlarini yorqin aks ettiradi. A.Hojiyevning “Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati” kitobida frazeologizmga shunday ta’rif beriladi: “Tuzilish jihatdan so‘z birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma’no anglatadigan, nutq jarayonida yaratilmay, balki nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug‘aviy birlik. Turg‘un birikmalarning obrazli, ko‘chma ma’noga ega turi”.

Demak, frazeologizmlar tilning muhim ifoda vositalaridan biri bo‘lib, nutqning jozibali va ta’sirchan bo‘lishida katta rol o‘ynaydi. Odam kundalik hayotda qo‘llaydigan so‘zlar uning ongida atrofdagi olam, jamiyat va insonning o‘zi haqida tasavvur uyg‘otadi. Bu obyektiv voqelik haqidagi axborotni yetkazish tilning murakkabroq birliklarida - frazeologizmlarda ham o‘z ifodasini topadi. Frazeologizmlarni o‘rganishda asosiy e’tibor ularni tashkil etuvchi komponentlarning ma’nosi yoki ularning o‘zaro bog‘lanishlariga emas, balki frazeologizmning o‘ziga-aniq shaklga, ma’lum mazmunga va nutqda qo‘llanish xususiyatlariga ega yaxlit birlik sifatida talqin etishga qaratiladi.

Kvantitativ frazeologiya frazeologiyaning bir bo‘limi sanalib, ushbu bo‘limda miqdoriy munosabat anglatuvchi yoki tarkibida sonlar mavjud bo‘lgan, yohud ko‘chma, obrazli ma’nolar orqali miqdorga ishora qiluvchi frazeologik birliklar o‘rganiladi. Mazkur bo‘lim narsa va tushunchalar orasidagi miqdoriy aloqalarning frazeologizmlar vositasida tilda namoyon bo‘lishini tadqiq etadi. Kvantitativ frazeologiya frazeologizmlarni miqdor kategoriyasi bilan bog‘liq ravishda tahlil

[2]Yo’ldoshev B. O’zbek frazeologiyasi va frazeografiyasi masalalari. –Toshkent: Muharrir, 2013. -B.24.
[3]Almamatova Sh.T. O’zbek tili frazemalarining komponent tahlili: Filol.fanl.nomz.diss.avtoref. –Toshkent, 2008.
[4] Vafoyeva M.Y. O’zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning struktural-semantik tahlili: Filol. fanl. nomz.diss. – Toshkent, 2009.

(cc) BY

qiladi, shu bilan birga, frazeologizmlarning miqdoriylik, o‘lchov yoki tildagi ma’lum miqdoriy xususiyatlarni anglatish uchun xizmat qilishini ko‘rsatib beradi.Kvantitativ frazeologizmlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bunday frazeologizmlar tarkibidagi sonlar o‘zining leksik semantikasini saqlab qolishi yoki uni yo‘qotishi mumkin.Ayrim son (miqdor semasini anglatuvchi) komponentli frazeologizmlarda son faqat boshqacha ma’no kasb etib qolmay, balki miqdor maydonidan sifat-ekspressiv baho maydoniga o‘tib ketadi. Masalan: “Ikki tomchi suvdek o‘xshash”, “Bir oyog‘i go‘rda bo‘lmoq”, “Bir dunyo meva” kabilar. Keltirilgan misollarda frazeologik birliklar nutqiy ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi, ular tarkibidagi sonlar desemantizatsiyaga uchraydi, kvantitativlik ma’nosi yo‘qoladi.

Xullas, kvantitativ so‘zlar dunyoni bilishning asosiy elementi bo‘lish bilan birga, nutqni obrazli, serjilo, ta’sirchan qilishda ham muhim ahamiyatga ega. Ba’zi frazeologizmlar predmetga xos yoki unga nisbat berilgan xususiyat sifatida haqiqiy hodisa yoki belgining o‘lchov mikrosistemasiga kiradi. Bular semantikasida “intensivlik” semasi mavjud bo‘lgan frazeologik birliklardir. Falsafiy nuqtayi nazardan intensivlik-bu o‘lchov kategoriyasi bo‘lib, obyektning sifat va miqdor xususiyatlarining dialektik birligini ifodalaydi. Miqdor o‘zgarishi sifat o‘zgarishiga olib kelishi va, aksincha, sifatning o‘zgarishi miqdor o‘zgarishini taqozo etishi mumkin. Intensivlik kategoriyasi insonning nafaqat bilish faoliyati natijasi, balki uning bahosi hamdir. Inson atrof-muhitni nafaqat ko‘radi, balki his qiladi, tushunadi, baholaydi va uni til orqali ifodalaydi. Hozirgi bosqichda intensivlik kategoriyasining ayrim jihatlarini o‘rganishga oid turli xil materiallar jamlangan. Masalan, intensivlikni ekspressivlik bilan bog‘lab talqin qilish (ya’ni, uni ekspressivlik kategoriyasining tarkibiy qismi sifatida kiritish), rus tilida belgi intensivligi kategoriyasi, ingliz tilida semantik intensivlik kategoriyasi va boshqalar.

Frazeologizm olamning obrazli talqini va emotsional ta’sirchan ifoda vositasi bo‘lib, doimo baholovchanlik xususiyatiga ega. Unda, odatda, muayyan belgi yoki harakatning me’yoriy ko‘rinishidan og‘ish aks etadi. Boshqacha aytganda, frazeologik birikmalar noodatiy, intensivlashtirilgan baholovchanlik bilan tavsiflanadi. Baholovchanlik o‘zining gradatsiyalariga ega bo‘lib, ular tilda real voqelikning aks etishi bilan birga ifodalanadi. Ushbu gradatsiyalarni yetkazish intensivlik kategoriyasining vazifasidir. Intensivlik ekspressivlikning miqdor o‘lchovi bo‘lib, emotsionallik va baholovchanlik kategoriyalari bilan uzviy bog‘liqdir. Ekspressivlik darajasi intensivlik miqdorida aks etadi, u esa odatdagi (asosiy) darajadan yuqoriroq yoki miqdoriy ko‘rsatkichdan pastroq bo‘lishi mumkin. Inson ongida intensivlikning turli darajalari - kuchaygan yoki zaiflashgan holatlari - “juda”, “zo‘r”, “nihoyatda”, “haddan tashqari”, “zo‘rg‘a”, “sal-pal” kabi ravishlar orqali frazeologik birikmalar sharhiga kiritib ifodalanadi. Ma’lum bir sifat yoki miqdorni bo‘rttirish yoki kamaytirish, ya’ni intensivlashtirish orqali frazeologizm

(cc) BY

semantikasidagi hodisa yoki belgining xususiyatlarini yanada yaqqolroq ochib berish, obyektiv dunyo tuzilishini chuqurroq anglash va so‘zlovchining fikr predmetiga munosabatini yanada yorqinroq va emotsionalroq ifodalash mumkin bo‘ladi. Voqelikni inson milliy tillar prizmasida qabul qiladi. Har bir tilning frazeologiyasi xalq ruhini, uning dunyoqarashi va dunyoni anglashini aks ettiradi, biroq obyektiv olamni va insonning tabiat bilan aloqalarini tasvirlashning universal usullari o‘xshashligiga asoslanadi. Shunday qilib, semantikasida intensivlik kategoriyasi mustahkamlangan frazeologik birliklar yaxlit frazeologik dunyo manzarasining elementi sifatida qaraladi va xalqning moddiy hamda ma’naviy dunyosining so‘zli ifodasini tashkil etadi.

Frazeologizmlarning tuzilishi va mazmuniga izoh berilganda frazeologizmlar atrofdagi dunyo realiyalarini obrazli ifodalash jarayonida muayyan vazifalarni bajaruvchi elementlar sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev B. O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasi masalalari. - Toshkent: Muharrir, 2013. -B.24.

2. Almamatova Sh.T. O‘zbek tili frazemalarining komponent tahlili: Filol.fanl.nomz.diss.avtoref. -Toshkent, 2008.

3. Vafoyeva M.Y. O‘zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning struktural-semantik tahlili: Filol. fanl. nomz.diss. -Toshkent, 2009.

4. Григорьян, Е.Л. О возможности квантификации ситуаций // Логический анализ языка. Квантитативный аспект. - М., 2005. - С. 587-595.

5. Ермакова,О.П.Переход качества в количество (о природе нтенсификаторов) // Логический анализ языка. Квантитативный аспект языка. - М.: Индрик, 2005. - С. 272-279.

6. Галич, Г.Г. Когнитивные стратегии и языковые структуры - Омск: ОмГУ, 2011. - С.232.

(cc) BY